

ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA UNLI TOVUSHLARNI O'QITISHDA ORFOEPIK MASHQLARNING AHAMIYATI

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna,

Samarqand davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

+99-890-731-67-92 Elektron pochta manzili:dganiyeva084@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola ona tili dastur va darsliklarida unli tovushlar ta'limiga doir o'quv materiallari tahlili, "Ona tili" darsliklarida unli tovushlarni o'qitishning muammo va yechimlari. O'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish usullarini rivojlantirish. Shuningdek, milliy unli tovushlarni o'qitishning qonun-qoidalari, orfoepik jihatiga e'tibor qaratish, metodika sohasida mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borgan ayrim olimlar fikriga qisman munosabat.

Annotation

This article analyzes educational materials on teaching vowel sounds in "Mother tongue" programs and textbooks, problems and solutions of teaching vowel sounds in "Mother tongue" textbooks. This article focuses on the development of methods of formation of literary pronunciation skills in students, as well as the rules of teaching national vowel sounds orthoepically. Also, a partial reaction is given to the opinions of some scientists who conducted scientific research in this direction in the field of methodology.

Аннотация

Данная статья представляет собой анализ учебного материала по обучению гласных звуков в программах и учебниках родного языка, проблемы и решения обучения гласных звуков учебниках "родной язык".

Развивать приемы формирования у учащихся навыков литературного произношения. Также уделить внимание закономерностям, орфоэпическому аспекту обучения национальных гласных, частичное отношение к мнению некоторых ученых, проводящих научные исследования в данном направлении в области методики.

Kalit so'zlar: fonetika, talaffuz, imlo, unli va undosh tovushlar, mashq va topshiriqlar.

Key words: phonetics, pronunciation, orthography, vowel and consonant sounds, exercises and tasks

Ключевые слова: фонетика, произношение, правописание, гласные и согласные, упражнения и задания.

Hozirgi kunda barcha sohalarga innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar jalb etilmoqda. Bu zamon talabi va hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari yangidan yangi metodikalar, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirishimiz, bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o‘rgatilgan bo‘lsa, boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu sharoitda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Innovatsion ta’lim – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limdir.

Paronimlar talaffuzi bir-biriga yaqin bo‘lgani uchun, bunday so‘zlarning o‘quvchilar tomonidan bir-biri bilan almashtirib qo‘llash holatlarini kuzatganmiz. Paronimlarni noto‘g‘ri qo‘llash natijasida gapda uslubiy jihatdan ga‘lizliklar vujudga kelishi mumkin. O‘quvchilarga ham bu kabi chalkashliklarni oldini olish maqsadida paronim so‘zlarning ma’nolarini yozish topshirig‘i berilsa, talaffuzi qiyin unli tovushlarni o‘rganish yanada osonlashadi.

DTsda 5-sinf o‘quvchilarining matn, matnni tushunish, og‘zaki va yozma matn yaratishga qaratilgan o‘rinlar Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish) A1 va A1+ darajaga muvofiq quyidagicha tasnif qilingan:

- Berilgan topshiriqlar, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;
- Matnni tushunib o‘qiy oladi;
- Og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qila oladi;
- 65-70 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi;
- xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi va husnixatga amal qiladi; imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariiga amal qila oladi;
- do‘sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xat yoza oladi.

Ayni vaqtida ushbu nutqiy kompetensiyalar bilan birgalikda quyidagi lingvistik kompetensiyalarga oid bilim va ko‘nikmalarni egallah talab etiladi:

- ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariiga amal qila oladi;
- mavzuga oid yangi so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi;

- yozma nutqda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi;
- so‘zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to‘g‘ri shakllantira oladi;
- gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay oladi.[1]

Ta’limdagи asosiy yondashuvni esa milliy o‘quv dasturlari ifodalaydi. Hozirgi kunda zamonaviy ruhda yaratilgan milliy o‘quv dasturlarida fanlararo integrativ yondashuvga e’tibor qaratildi hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixofiziologik rivojlanishlarini e’tiborga olgan holda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish tamoyili asosida qayta ko‘rib chiqildi.

Psixologik nuqtayi nazardan inson xotirasi muayyan turlarga bo‘linar ekan. Ma’lumotni bir marta o‘qish oddiy xotirada vaqtincha saqlanadi va qisqa fursatda unutiladi. Agar egallangan bilim muntazam takrorlanib turilsa, ushbu ma’lumot doimiy xotiraga o‘tadi. E.G‘oziyev ta’kidlashicha, G.Ebbingauzning o‘quvchi eslab qolishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar tarkibi, sifati haqida olgan xulosalariga to‘xtalib o‘tamiz. G.Ebbingauzning aytishicha, hech qanday ma’no anglatmaydigan 38 ta bo‘g‘inni o‘quvchi 55 marta takrorlaganda eslab qolganini; 38-40 ta so‘zdan iborat materialni eslab qolish uchun esa, 6-7 marta takrorlash kifoya ekanligini isbotlagan.[2]

O‘quvchi o‘zi uchun zarur ma’lumotlarni takrorlab turishi hamda uzoq muddatli xotirasiga o‘tkazish uchun ko‘p marotaba takrorlab, xotirasida qayta tiklashi lozim bo‘ladi. Shu o‘rinda fonetika bo‘limini o‘qitishda mashq va topshiriqlarning o‘quv materialini tashkil etuvchi mazmunli matnlardan o‘rinli foydalanilsa, o‘quvchi uni takrorlashi natijasida uzoq muddatli xotirasida saqlaydi.

O‘qituvchi ona tili darslarida so‘zni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko‘pincha so‘zni tovush tomondan tahlil qilishdan foydalanadi. Maktab dasturiga muvofiq, o‘quvchilar fonetik-grafik ko‘nikmalar tizimini hosil qiladilar. O‘quvchilarida so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish, bo‘g‘inlarga bo‘lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko‘nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishslash, o‘z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiatini, so‘z tarkibida bir-biriga ta’siri kabi ayrim elementar bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

5-sinfda fonetika va grafikani o‘rganishga katta o‘rin beriladi, chunki o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Pedagog, avvalo, matn tanlashda o‘quvchining yoshini, qiziqishlarini ham hisobga olgan holda, o‘quvchiga o‘rgatmoqchi bo‘lgan ko‘nikma haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmog‘i lozim. Ya’ni, o‘qituvchi o‘zi xohlagan natijaga erishmoq uchun aniq strategiyalar

tuzib chiqmog‘i va bu strategiyalar kerakli natijaga erishishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tashi kerak.

O‘qituvchi u yoki bu tovush tarkibida turli nutq organlari: lablar, tishlar va til ishtirok etayotganini ko‘rsatadi hamda tushuntirib beradi. Bolalarning tovushlarni ifoda etishda nutq organlari holatini ko‘rib olishlari ularning to‘g‘ri talaffuzni o‘zlashtirib olishlarida yordam beradi. Bu boradagi ish tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu yo‘nalishdagi mashqlar ijobjiy natijalarga olib keladi. Amaliyotda bu metodik usullar ko‘pincha birgalikda qo‘llaniladi va ular doimo bir -birini to‘ldiradilar.

O‘zbek maktablarida ona tili o‘qitish konsepsiyasida o‘quvchilarining so‘z zaxirasiga bo‘lgan asosiy talablar belgilab berilgan. Ular bu davrda atrof-muhit, tabiat manzaralarini tasvirlovchi turli predmet va tushunchalarning nomlarini, turli predmetlarning nomi va rangi, sanog‘i, miqdori va ish-harakat ifodalovchi so‘zlarning nomini, bajarilish tarzini ifodalovchi so‘zlarni, yordamchi so‘zlarni bilishlari, to‘g‘ri talaffuz qila olishlari, to‘g‘ri yozishlari hamda o‘z fikrlarini ifodalash jarayonida ushbu vositalardan samarali foydalanishlari talab qilinadi.

Ta’lim mazmuni deganda 1) o‘quv rejalar, 2) o‘quv dasturlari, 3) darsliklar

4) o‘quv metodik qo‘llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun tanlangan va ularning o‘zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o‘z ichiga oladi.[3]

Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyevning ta’lim mazmuniga o‘qituvchini ham kiritishi nihoyatda to‘g‘ri yondashuv. Chunki til sathlaridan aynan orfoepiya va fonetikani o‘qitishda o‘qituvchining roli juda muhim bo‘lib, o‘quvchilar adabiy talaffuzni bevosita o‘qituvchidan o‘rganadilar.[4]

Shu o‘rinda, unli tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatishda mashqlarning o‘rnini qandayligini ham aniqlashtirib olish zarur. “Ona tili” darsliklarida mashqlar, xususan talaffuz mashqlari mavjud emas. Shu ma’noda, “mashq” va “topshiriq” atamalariga ham, uning metodikadagi tadqiqiga ham qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Metodist olim M.Saidov o‘quv topshiriqlarini uch turga bo‘lib, ularni o‘zaro farqlaydi. Ko‘pincha o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlari davomida “mashq”, “topshiriq” va “masala“ tushunchalarini o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay olmasliklarini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, topshiriq mashqning bir bo‘lagi bo‘lib, u mashqning shartida o‘z ifodasini topishi, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini ta’kidlab o‘tgan. [5]

G‘.Hamroyevning ta’kidlashicha, topshiriqlar o‘quvchini yo‘naltiradi va fikrlashga undaydi, hosil bo‘lgan bilim ko‘nikma va malakalarni baholaydi. Mashq esa o‘quvchida ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi.[6]

Adabiy talaffuz ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida quyida berilgan tavsiyalar asosida mashqlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

1. ko'ngil, o'tin kabi birinchi bo'g'inida – o' tovushi keladigan leksemalarning keyingi bo'g'inida -u emas, -i aytildi.
2. Leksemaning oldingi bo'g'inida -o tovushi kelsa, -v tovushi bilan boshlanadigan keyingi yopiq bo'g'inida -i emas, -u talaffuz qilinadi:sovun, tovush, saksovul.
3. Leksemaning oldingi bo'g'inida -u tovushi kelsa, keyingi yopiq bo'g'inida -i emas, -u talaffuz qilinadi: yulduz, yutuq, turmush, tugun
4. duk-duk, g'ov-g'uv kabi tasvir birliklarining dukur-dukur, g'ovur-g'uvur shaklida -r tovushidan oldin -u tovushi talaffuz qilinadi.
5. ta'na, la'l, e'tiqod, me'yor kabi arabcha leksemalarda tutuq belgisidan oldingi tovush cho'zib talaffuz qilinadi.[7]

O'qituvchi o'quvchilarga tinglash jarayoni va uning vazifalari haqida tushuncha bera olishi kerak. O'quvchi o'qituvchining aralashuviziz va tinglovchi har xil usullar yordamida belgilangan vazifani bajarsagina, strategiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo'ladi. O'quvchilar darsni to'liq tushunishlari uchun ular o'qituvchi tomonidan eshittirilgan audio matnni diqqat bilan tinglashlari va vazifani bajarishlari lozim. Agar o'quvchi berilgan topshiriqni bajara olmasa, mashg'ulotning maqsadi amalga oshmagan bo'ladi.

O'zbek tili orfoepiyasi – tilshunoslikning oldida turgan eng muhim va murakkab muammolardan biridir, ayniqsa, unlilar orfoepiyasi. Ma'lumki, yozuv bilan jonli nutq o'rtasida anchagini farq bor. Kishilarning kundalik nutqi qanday bo'lsa, shundayligicha yozilavermaydi. Aksincha, yozma nutq orfografiyaning muayyan qoidalariiga tobe etiladi. Demak, badiiy adabiy til ham orfografiya qoidalariiga bo'ysundirilgandir. Ba'zi so'z ijrochilari adabiy talaffuz deganda, jonli nutqda orfografik qoidalarga to'la riosa qilishni, ya'ni kitobda qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha harfma-harf talaffuz etishni tushunadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent, 2017
- 2.G'oziyev E. Umumiy pedagogika.–T.,2010.– 221-22-b.
3. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Ona tili o'qituvchilari uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1995.- 128 b.
4. G'ofir Hamroyev. Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish.(PhD) Dissertatsiyasi. Samarqand – 2019.– 13 b
5. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di dissertatsiya. avtoref.TDPU. –Toshkent, 2000. – 25 b.

6. F.Ҳамроев Она тили таълимида ўқув топшириқлари ишлаб чиқишинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари д-ри. Автореф. – Тошкент. 2022. 56 б.

7. Sh.Rahmatullayev “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili ”.Toshkent “Universitet “ – 2006. 23-b.